

ARAB TILIDA SINONIMIYANING PAYDO BO'LISH SABABLARI

Azizjon M. Muxammadjonov

Doktorant, o'qituvchi. Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

azizmuhammadiy222@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada arab tilida sinonimiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, leksik va semantik omillar tahlil qilinadi. Qur'on va hadis matnlarini sharhlash jarayonida yaqin ma'noli izohlarning berilishi, dialektal farqlar hamda arab tilining boy leksik-semantik tuzilishi sinonimik birliklarning shakllanishiga sabab bo'lgani yoritiladi. Tadqiqot klassik arab tilshunoslari qarashlari asosida tarixiy-tahliliy va qiyosiy usullar yordamida olib borildi. Natijalar sinonimiya hodisasi tafsiriy ehtiyoj, dialektlar aralashuvi, leksik soddalashtirish, fonetik va semantik o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Arab tilida sinonimiyaning baholashda mutloq sinonimlik va yaqin sinonimlik tushunchalarini aniq farqlash zarur bo'lib, bu yondashuv leksik tizimni to'g'ri talqin etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sinonimiya, leksik-semantik tizim, mutloq sinonimlik, yaqin (qisman) sinonimlik, Qur'on va hadis leksikasi, "yaqin ma'no" bilan sharhlash, dialektlar aralashuvi, leksik soddalashtirish, fonetik-morfologik variantlashuv, semantik siljish va majoz barqarorlashuvi.

ABSTRACT

This article analyzes the historical, lexical, and semantic factors that have influenced the emergence and development of synonymy in the Arabic language. It highlights how the practice of providing near-meaning explanations in the interpretation of Qur'anic and Hadith texts, dialectal variation, and the rich lexical-semantic structure of Arabic have contributed to the formation of synonymic units. The study is conducted on the basis of classical Arabic linguists' views, employing historical-analytical and comparative methods. The findings show that synonymy is intrinsically linked to exegetical needs, dialectal interpenetration, lexical simplification, as well as phonetic and semantic changes. In assessing synonymy in Arabic, it is essential to clearly distinguish between absolute synonymy and near (partial) synonymy, as this approach ensures a more accurate interpretation of the lexical system.

Keywords: synonymy; lexical-semantic system; absolute synonymy; near (partial) synonymy; Qur'anic and Hadith lexicon; interpretation through "near

meaning”; dialectal interpenetration; lexical simplification; phonetic-morphological variation; semantic shift and the conventionalization of metaphor.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются исторические, лексические и семантические факторы, оказавшие влияние на возникновение и развитие синонимии в арабском языке. Показано, что практика предоставления близких по значению толкований в процессе комментария к кораническим и хадисным текстам, диалектные различия, а также богатая лексико-семантическая структура арабского языка способствовали формированию синонимических единиц. Исследование проведено на основе взглядов классических арабских лингвистов с применением историко-аналитического и сравнительного методов. Полученные результаты свидетельствуют о том, что феномен синонимии находится в тесной связи с тафсирийной потребностью, взаимодействием диалектов, лексическим упрощением, а также фонетическими и семантическими изменениями. При оценке синонимии в арабском языке необходимо чётко разграничивать понятия абсолютной синонимии и близкой (частичной) синонимии, поскольку данный подход обеспечивает корректную интерпретацию лексической системы.

Ключевые слова: синонимия; лексико-семантическая система; абсолютная синонимия; близкая (частичная) синонимия; лексика Корана и хадиса; толкование через «близкое значение»; взаимодействие диалектов; лексическое упрощение; фонетико-морфологическая вариативность; семантический сдвиг и закрепление метафоры.

KIRISH

Dunyo tillarida bir denotativ tushunchaning bir nechta leksik birliklar orqali nomlanishi keng uchraydigan hodisadir. Bu holat sinonimlikni baholashda mezon masalasini bevosita kun tartibiga olib chiqib, “qaysi birliklar semantik tarkibi hamda qo‘llanish doirasi jihatidan to‘liq ekvivalent bo‘lib haqiqiy sinonim sifatida tan olinadi, qaysilari esa faqat ma’no yaqinligini ifodalab, uslubiy yoki kontekstual cheklovlar sabab yarim sinonim doirasida qoladi?” degan savollarni yuzaga keltiradi (Lyons, 1977; Cruse, 1986; Murphy, 2003; ‘Umar, 2009). Arab tilida bu masala ayniqsa dolzarb, chunki tilning tarixiy qatlamlari, qabila lahjalari va adabiy-uslubiy an’analari bir semantik maydonda ko‘plab so‘zlarning jamlanishiga olib kelgan. Shuning uchun sinonimiya arab tilining lug‘aviy boyligini ko‘rsatish bilangina cheklanmay, leksik-semantik mezonlarni aniqlash nuqtayi nazaridan ham muhim muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Arab tilida sinonimik qatlamning shakllanishida Qur’on va hadis matnlarini tushunish hamda sharhlash jarayoni alohida o‘rin tutadi. Xususan, غرائب القرآن “Qur’ondagi kam uchraydigan/murakkab so‘zlar ilmi va izohi” yo‘nalishi Qur’on

leksikasidagi “g‘arib” birliklarni izohlashga qaratilgan bo‘lib, ularning ma’nosini ko‘pincha eng yaqin leksik birliklar orqali ochib berishni odatga aylantirgan. Shu doirada keng tanilgan manbalardan biri المفردات في غريب القرآن “Qur’ondagi g‘arib so‘zlar lug‘ati” bo‘lib, Qur’on terminlarini semantik yaqinlik asosida sharhlash usulini kuchaytirgan (al-Rāghib al-Isfahānī, 2009). Hadis leksikasida ham xuddi shunday izohchilik an’analari shakllanib, sinonimik talqinlar doirasini kengaytirgan. Bundan tashqari, sinonimiyaning kengayishiga تداخل اللهجات “Lahjalarning o‘zaro aralashuvi”, ya’ni qabilalararo kontakt natijasidagi leksik almashinuv ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Klassik manbalarda bu jarayonning til tizimini boyitishi qayd etiladi, masalan, المظهر في علوم اللغة “Til ilmlari haqida” asarida lahjalar aralashuvi va leksik farqlar masalasi muhokama qilingan (al-Suyūfī, 1998). Shu bilan birga, mavjud yondashuvlarda ko‘pincha “mutloq sinonimlik” va “qisman sinonimlik” chegaralari aniq ajratilmagani sababli, dialektal variantlar, fonetik-morfologik o‘zgarishlar va izohchilik amaliyotida berilgan “yaqin ma’nolar” bir xil sinonimlik doirasiga kiritilib keladi. Mazkur maqolaning maqsadi arab tilida sinonimiyaning paydo bo‘lish sabablarini (lahjalar aralashuvi, semantik kenglik va tarixiy o‘zgarishlar) tizimli yoritish hamda sinonimlikni baholash mezonlarini aniqroq asoslashdir.

QO‘LLANGAN USULLAR

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy-semantik, kontekstual va leksikografik tahlil usullari qo‘llandi, fonetik-morfologik variantlashuv hamda semantik o‘zgarishlar alohida mezonlar asosida izohlandi.

3. NATIJALAR

O‘tkazilgan manba va kontekst tahlili natijasida arab tilida sinonimiyaning shakllanishi bir omil bilan emas, balki o‘zaro bog‘liq tarixiy-lisoniy mexanizmlar majmui bilan izohlanishi aniqlandi. Natijalar asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha quyidagicha umumlashtirildi.

Sinonimiya manbalarining tasnifi. Tadqiqotda sinonimik va yaqin sinonimik birliklarning paydo bo‘lishi 8 ta asosiy omil atrofida jamlanishi ko‘rsatildi:

- semantik kenglik va kontekstga bog‘liq ma’no qirralari;
- Qur’on va hadis leksikasini izohlash jarayonida “yaqin ma’no” bilan sharhlash;
- leksik soddalashtirish (murakkab ma’noni soddaga birlik bilan izohlash);
- dialekt va qabila tillari ta’siri;
- adabiy-stilistik ehtiyoj (poetik vazn, ta’sirchanlik);
- fonetik-morfologik variantlashuv;
- semantik siljishlar hamda majoziy ma’noning barqarorlashuvi.

MUHOKAMA

Arab tilida sinonimiya hodisasi ko‘pincha “mutloq bir xil ma’no” ko‘rinishida emas, balki bir semantik maydon ichida ma’no qatlamlarining ko‘payishi va kontekst talabiga ko‘ra turlicha faollashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda tilning ichki imkoniyatlari

(semantik kenglik, variantlashuv, majoz) hamda tashqi omillar (dialektlar aralashuvi, sharh an'anasi, adabiy ehtiyoj) bir-biri bilan uzviy bog'lanib, sinonimik qatorlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun sinonimiya masalasini muhokama qilishda faqat lug'aviy "tenglik"ni emas, balki so'zning kontekstda bajarayotgan vazifasi, uslubiy yuklamasi va tarixiy taraqqiyotini ham hisobga olish zarur (Lyons, 1977; Cruse, 1986; Murphy, 2003; Umar, 2009).

Arab tilida sinonimiya ko'pincha "mutloq teng ma'no"dan ko'ra, bir semantik maydon ichida ma'no qirralarining ko'payishi va kontekstga qarab turli komponentlarning faollashuvi bilan izohlanadi. Masalan, "uy" ma'nosiga yaqin bo'lgan birliklar bir-birini almashtiradigandek ko'rinsa-da, ularning ichki semantik yuklamasi turlicha: مَسْكَنٌ / مَنَزَلٌ / دَارٌ - بَيْتٌ "uy/joy/turar joy" (Majma' al-Lugha al-'Arabiyya, 2004). Bu qatorda مَنَزَلٌ ko'proq "tushib joylashiladigan joy, manzil", مَسْكَنٌ esa "maskan, yashash joyi" qirrasini kuchliroq beradi, natijada ular ko'p kontekstda yaqinlashadi, lekin hamma holatda ham bir xil uslubiy ta'sir bermaydi. Xuddi shuningdek, "yomg'ir" so'zida مَطَرٌ / غَيْثٌ bir ko'rinishda sinonimdek, "yomg'ir" (Majma' al-Lugha al-'Arabiyya, 2004). Biroq غَيْثٌ ko'pincha "rahmat, foydali yomg'ir" konnotatsiyasini kuchaytiradi, shu sabab, adabiy matnda muallif maqsadiga ko'ra tanlov qiladi.

Sinonimiya shakllanishida ikkinchi muhim omil kontekstga bog'liq ma'no farqlari. Bir xil denotatni bildiradigan so'zlar turli vaziyatda boshqa ma'no soyalarini beradi. Masalan, "kelmoq" fe'llarini olaylik, جَاءَ / أَتَى "keldi" ma'nosini ifoda etadi. Ko'p matnlarda ular yaqin ishlatiladi, ammo ayrim kontekstlarda أَتَى "kelib yetish, sodir bo'lish" (hodisa sifatida kelish) qirrasini kuchaytiradi. Yoki "o'tirish"da: جَلَسَ / قَعَدَ "o'tirdi" ma'nosida. Ba'zi tilshunoslar bu juftlikni yaqin deb ko'rsa-da, ayrim uslubiy vaziyatlarda "o'tirib qolish, joylashib olish" kabi nozik farqlar muhim bo'lib qoladi. Demak, sinonimiya ko'pincha "tenglik" emas, balki "kontekstual yaqinlik"dir (Cruse, 1986; Murphy, 2003).

Uchinchi omil Qur'on va hadis leksikasini izohlashda "yaqin ma'no" bilan sharhlash an'anasi bo'lib, u tarixan sinonimik qatorlar haqidagi tasavvurni kengaytirgan. Masalan, Qur'on tilidagi kam qo'llanadigan birlikni mufasssirlar o'quvchiga yaqinroq so'z bilan ochib beradi: قَسْوَرَةٌ = أَسَدٌ "qasvara = sher". Bu yerda قَسْوَرَةٌ alohida leksik birlik bo'lsa ham, sharh amaliyotida u ko'pincha أَسَدٌ ("sher") orqali tushuntiriladi, natijada ular semantik ongda yaqinlashadi. Yana shunga o'xshash holat: سَجَّيْلٌ = حَجَارَةٌ مِنْ طِينٍ "sijjil = loydan bo'lgan tosh". Bu kabi izohlar doimo "mutlaq sinonim" yaratmaydi, lekin "yaqin ma'no" orqali tushunishni osonlashtirib, vaqt o'tishi bilan sinonimik bog'lanish hissini kuchaytiradi (al-Rāghib al-Iṣfahānī, 2009). Demak, *G'aribu'l-Qur'on va G'aribu'l-Hadis* yo'nalishidagi sharhlar sinonimiyani kengaytiruvchi tarixiy mexanizm vazifasini bajargan.

To'rtinchi omil leksik soddalashtirish, ya'ni murakkab tushunchani sodda va ko'proq ishlatiladigan birlik bilan izohlash. Ilmiy-izohiy matnlarda bu ko'p uchraydi: $\text{سُؤَال} = \text{اِسْتِفْهَام}$ — "istifhom = savol"; $\text{مَوْتٌ} = \text{وَفَاةٌ}$ "vafot = o'lim". Bunday juftliklarda ikkinchi birlik ko'proq umumiy va sodda bo'lgani uchun izoh vazifasini bajaradi. Natijada murakkabroq termin yoki kamroq ishlatiladigan so'z o'rnida sodda birlikning tez-tez qo'llanishi semantik yaqinlikni kuchaytiradi va "sinonimdek" idrok etishga olib keladi.

Beshinchi omil dialekt va qabila tillari ta'siri. Arab qabilalari tarixan turli lahjalarda bir denotatni turlicha atagan, keyinchalik esa bu birliklar adabiy tilga jamlanib, bir semantik maydonda yonma-yon yashagan. Buni "sher" misolida juda ravshan ko'rish mumkin: $\text{أَسَدٌ} / \text{لَيْثٌ} / \text{ضِرْغَامٌ} / \text{غَضَنَفَرٌ}$ — barchasi "sher", lekin turli lahja va adabiy qatlamlarda faol bo'lgan. Bu holatda sinonimiya "bir qabilada bitta so'z" tamoyilidan "qabilalar aralashuvi natijasida parallel nominatsiyalar yig'ilishi" tamoyiliga o'tadi. Xuddi shuningdek, "qilich" maydonida ham ko'p nomlar yig'ilgan: $\text{سَيْفٌ} / \text{حُسامٌ} / \text{مُهَنَّدٌ}$ "qilich". Bu birliklarning har biri ko'pincha badiiy matnda alohida uslubiy rang bilan qo'llansa-da, umumiy semantik maydon birligi ularni sinonimik tizimning tarkibiy qismi sifatida mustahkamlaydi.

Oltinchi omil adabiy-stilistik ehtiyoj, ayniqsa she'riyatda poetik vazn va ta'sirchanlikni saqlash zarurati. Shoir bir ma'noni takrorlamasdan, ohang va vazn talabiga mos variantni tanlaydi. Masalan, "chiroyli" sifatini ifodalashda: $\text{جَمِيلٌ} / \text{حَسَنٌ}$ — "chiroyli". Uchovida umumiy ma'no yaqin, ammo بَهِيٌّ ko'proq "yaltiragan, ko'zni qamashtiradigan chiroy" ta'sirini beradi. Yoki "qo'rqinch" maydonida: $\text{خَوْفٌ} / \text{فَرَقٌ}$ — "qo'rquv". Badiiy matn ta'sirni kuchaytirish uchun birini ikkinchisi bilan almashtiradi. Demak, sinonimiya adabiyotda faqat "o'rinbosarlik" emas, balki "stilistik tanlov" mexanizmidir.

Yettinchi omil fonetik-morfologik variantlashuv bo'lib, ayrim holatlarda bir ildiz yoki bir semantik birlikning turli talaffuz/yozuv variantlari yonma-yon yashab, "sinonimdek" qabul qilingan. Masalan, fonetik almashuv (*ibdāl*) natijasida bir ma'noga yaqin shakllar: $\text{صِرَاطٌ} / \text{سِرَاطٌ} / \text{زَرَاطٌ}$ "yo'l" (Majma' al-Lugha al-'Arabiyya, 2004). Bu yerda tovush almashuvi (ص-س-ز) shakllarni ko'paytiradi. Yoki *qalb* (harf o'rin almashuvi) misoli: $\text{جَدَبٌ} / \text{جَبَدٌ}$ — "tortdi". Bunday juftliklar ayrim manbalarda sinonim sifatida keltirilishi mumkin, lekin ilmiy tahlilda ular ko'pincha "variant shakl" sifatida ham baholanadi. Shunga qaramay, tarixiy lug'atchilik amaliyotida variantlarning yonma-yon qaydi sinonimik qatlamni kengaytirib yuborgan.

Sakkizinchi omil semantik siljishlar va majoziy ma'noning barqarorlashuvi. So'z avval majoz sifatida qo'llanadi, keyin esa bu majoz mustahkamlanib, yangi lug'aviy ma'no bo'lib qoladi, natijada u boshqa so'zlar bilan sinonimik yaqinlikka kiradi. Masalan, عَيْنٌ aslida "ko'z", lekin barqarorlashgan majoz orqali "buloq" ma'nosi ham faol: $\text{عَيْنٌ} / \text{يَنْبُوعٌ}$ — "buloq". Yoki يَدٌ aslida "qo'l", ammo majoz barqarorlashib "qudrat,

hokimiyat” maydoniga o’tadi: يَدٌ (بِمَعْنَى قُدْرَةٍ) — “qo’l (ya’ni qudrat)” (Majma’ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004). Shunda u “kuch” ma’nosidagi birliklarga yaqinlashadi: قُوَّةٌ / قُدْرَةٌ — “kuch/qudrat” (Majma’ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004). Yoki نُورٌ aslida “yorug’lik”, majozan “hidoyat” ma’nosida barqarorlashgach, u هُدًى (“hidoyat”) bilan yaqin semantik munosabatga kiradi: نُورٌ (بِمَعْنَى هُدًى) — “nur (ya’ni hidoyat)” (Majma’ al-Lugha al-‘Arabiyya, 2004). Bu jarayon sinonimiyaning tenglik sifatida emas, balki “tarixiy semantik rivojlanish natijasi” sifatida ko’rsatadi.

XULOSA

Ushbu maqolada qo’yilgan maqsad arab tilida sinonimiyaning paydo bo’lish sabablarini tizimli yoritish va sinonimlikni baholash mezonlarini aniqlashtirish bajarildi. Manba va kontekst tahlili arab tilida sinonimik qatlam birgina omil natijasi emasligini, balki semantik kenglik va kontekstga bog’liq ma’no qirralari, Qur’on va hadis leksikasini “yaqin ma’no” bilan sharhlash an’anasi, leksik soddalashtirish, dialektlar aralashuvi, adabiy-stilistik ehtiyoj, fonetik-morfologik variantlashuv hamda semantik siljishlar va majoziy ma’noning barqarorlashuvi kabi o’zaro bog’liq mexanizmlar majmui bilan shakllanishini tasdiqladi. Tadqiqot gipotezasi arab tilida sinonimiya ko’proq “mutloq tenglik”dan ko’ra “kontekstual yaqinlik” asosida kengayishi tasdiqlandi. Shuningdek, natijalar arab tilida sinonimiyaning ilmiy talqin qilishda “mutloq sinonimlik” va “yaqin (qisman) sinonimlik”ni qat’iy farqlash zarurligini ko’rsatdi, bu yondashuv leksik-semantik tizimni tarixiy, uslubiy va kontekstual omillar bilan birga to’g’ri talqin etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. al-Rāghib al-İshfahānī, al-Ḥusayn ibn Muḥammad. (2009). *al-Mufradāt fī gharīb al-Qur’ān* [Vocabulary of the Qur’ān]. Dimashq/ Bayrūt: Dār al-Qalam & al-Dār al-Shāmiyya. (In Arabic)
2. al-Suyūṭī, Jalāl al-Dīn. (1998). *al-Muzhir fī ‘ulūm al-lugha wa-anwā’ihā* [The illuminator on the sciences of language and its types]. Bayrūt: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya. (In Arabic)
3. Cruse, D. A. (1986). *Lexical semantics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vols. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.
5. Majma’ al-Lugha al-‘Arabiyya. (2004). *al-Mu’jam al-Wasīṭ* [The Intermediate Dictionary] (4th ed.). al-Qāhira: Majma’ al-Lugha al-‘Arabiyya. (In Arabic)
6. Murphy, M. L. (2003). *Semantic relations and the lexicon: Antonymy, synonymy and other paradigms*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. ‘Umar, A. M. (2009). *‘Ilm al-dalāla* [Semantics]. al-Qāhira: ‘Ālam al-Kutub. (In Arabic)
8. Majma’ al-Lugha al-‘Arabiyya. (2004). *al-Mu’jam al-Wasīṭ* [The Intermediate Dictionary] (4th ed.). al-Qāhira: Majma’ al-Lugha al-‘Arabiyya. (In Arabic)